

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA OILA INSTITUTINING MAZMUN-MOHIIYATI VA AHAMIYATI

G'ulomjonov Odiljon Raximjon o'g'li

Andijon davlat universiteti Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrası

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), v.b. dotsenti.

OrCid: 0000-0002-7212-7540

Elektroni pochta: gulomjonovandu@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22763183>

Qabul qilindi: 7-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Ushbu tesizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila institutining mazmun-mohiyati, jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rnini hamda ahamiyati yoritilgan. Oilaning jamiyatning asosiy ijtimoiy bo'g'ini sifatidagi mavqei, uning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar:

Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, oila instituti, oila qadriyatlari, oilaviy farovonlik, davlat siyosati, ijtimoiy himoya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, xotin-qizlar, yoshlar, mahalla, jamiyat.

Oila jamiyatning eng muhim va asosiy ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning ma'naviy-axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlarga munosabati, jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va hayotiy pozitsiyasi, avvalo, oilada tarkib topadi. Shu sababli oilaning mustahkamligi va barqarorligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Oila nafaqat insonlarning birgalikdagi hayot kechirish maskani, balki avlodlar davomiyligini ta'minlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazuvchi muhim tarbiya muhitidir. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida inson qadrini ulug'lash, aholining munosib turmush sharoitlarini yaratish, ijtimoiy adolat va farovonlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Mazkur jarayonda oila institutini mustahkamlash, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, xotin-qizlar va bolalarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oila farovonligi jamiyat farovonligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mustahkam oilalar mamlakatning ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilalarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mahalla institutining rolini oshirish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi oila institutining jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va aholining farovonligini oshirish orqali oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oila institutining mazmun-mohiyatini anglashda uning nafaqat biologik va iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma'naviy va tarbiyaviy funksiyalarini ham hisobga olish zarur. Oila yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Milliy oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy

taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtirish esa jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti jamiyatning ijtimoiy-madaniy poydevorini mustahkamlovchi, inson kapitalining sifat jihatdan yuksalishini ta'minlovchi, milliy taraqqiyotning uzviy mexanizmi sifatida talqin etiladi. Oila bu yerda faqat biologik yoki huquqiy birlik emas, balki ijtimoiy tizimning murakkab, ko'p qatlamli, o'zaro aloqador va barqaror rivojlanish omilidir. Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan, oila insonning jamiyatdagi mavjudligi, ijtimoiy ongning shakllanishi, ma'naviy qadriyatlarning davomiyligi va ijtimoiy integratsiyaning tabiiy maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Shu boisdan Yangi O'zbekiston konseptual taraqqiyot modelida oila - ijtimoiy barqarorlik va milliy uyg'unlashning asosiy tayanchi sifatida strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur strategik yondashuv jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida inson omilining markazga qo'yilishini, oila esa bu omilni real hayotiy amaliyotda mujassam etuvchi institut sifatida faoliyat yuritishini ta'kidlaydi. Taraqqiyot strategiyasi oila orqali insonning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish, madaniy o'zlikni mustahkamlash, milliy g'urur va ijtimoiy birdamlikni oshirishga yo'naltirilgan. Falsafiy jihatdan olganda, bu jarayon ontologik asosda jamiyatning "bo'lish" holatidan "rivojlanish" holatiga o'tishini bildiradi. Oila bu o'zgarishda subyektiv ongni ob'yektiv ijtimoiy jarayonlarga bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy falsafa kontekstida oila ijtimoiy tizimning o'zini qayta ishlab chiqaruvchi mexanizmdir. U jamiyatning tarixiy davomiyligini, ma'naviy barqarorligini, avlodlararo vorislikni ta'minlaydi. Shu nuqtada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila ijtimoiy islohotlarning passiv ob'yekti emas, balki faol sub'yekti sifatida e'tirof etiladi. Bu, o'z navbatida, oila institutining ma'naviy, iqtisodiy, axloqiy, va psixologik jihatdan mustahkamlanishini strategik zarurat sifatida ilgari suradi. Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng ta'sirli ijtimoiy tizimi bo'lib, uning barqarorligi butun millatning intellektual va ma'naviy yuksalish darajasini belgilaydi. Shuningdek, ijtimoiy falsafiy yondashuvda oila institutining strategik o'rni shaxsning ijtimoiy mavjudot sifatida kamol topishida namoyon bo'ladi. Oila insonni ijtimoiy axloq me'yorlariga moslashtiradi, ma'naviy qadriyatlarni singdiradi, ijtimoiy ongni shakllantiradi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida bu jihat ijtimoiy taraqqiyotning ichki ma'naviy energiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Oila orqali jamiyatda insonparvarlik, mehnatsevarlik, hamjihatlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlar mustahkamlanadi. Shu tariqa, oila institutining ijtimoiy-falsafiy mohiyati jamiyatning yangilanish jarayonida g'oyaviy va ma'naviy asos sifatida harakat qiladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti ijtimoiy mavjudlikning markaziy fenomeni sifatida, insonni jamiyat bilan uyg'unlashtiruvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi, ijtimoiy taraqqiyotning ma'naviy asosi sifatida qaraladi. Bu strategik yondashuv oila institutini faqat ijtimoiy ehtiyoj emas, balki jamiyatning falsafiy va ma'naviy tayanchi sifatida talqin etib, Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti va insoniy jamiyat idealiga yo'naltirilgan mafkuraviy asosni shakllantiradi.

Oilaviy munosabatlar insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy va barqaror sotsial shakli sifatida ijtimoiy institutlar tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. U insoniy mavjudlikning biologik, axloqiy, ma'naviy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarini o'zida mujassam etgan murakkab fenomen bo'lib, ijtimoiy falsafa kontekstida o'rganilganda, jamiyatning tuzilmasi, ijtimoiy ong, shaxsiy identitet, qadriyatlar dinamikasi va madaniy ontologiya masalalari bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi. Oila bu yerda nafaqat shaxsiy his-tuyg'ularning jamlanmasi, balki ijtimoiy reproduksiya va gumanitar tafakkurning uzviy mexanizmi sifatida falsafiy tahlil obyekti bo'ladi. Oila institutining falsafiy talqinida uning funksional mexanizmlari - reproduktivlik, ijtimoiylashuv, axloqiy nazorat, identifikatsiya, kommunikatsiya va kompensatorlik jarayonlari - jamiyatning umumiy gumanitar holati bilan chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'ladi. R.T.Zohirov ta'kidlaganidek, "oila - bu shaxsiy 'men'ni jamiyat ichida ontologik jihatdan shakllantiruvchi, ijtimoiy identitetning aksiologik asoslarini belgilovchi va gumanistik prinsiplarni real hayotga tatbiq qiluvchi institutsional strukturadir"¹.

¹ Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - 16-17-6.

Ijtimoiy institut sifatida oila inson faoliyatining determinatsiyalangan modelini taklif etadi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tizimi ijtimoiy rollar va norma (me'yor)larga asoslangan holda shakllanadi. Bu holat Parsons va Bales (1955) tomonidan ishlab chiqilgan "strukturaviy-funksionalizm" nazariyasida o'z aksini topadi. Ularning fikricha, "oila - bu jamiyatning institutsional yadrosi bo'lib, uning barqarorligi funksional differensiasiyalangan rollar vositasida ta'minlanadi: erkak - instrumental, ayol - ekspressiv funksiyalarni bajaradi"². Oila nafaqat tarixiy-institutsional birlik, balki ontologik mavjudlik shakli sifatida ham talqin qilinadi. Falsafa tarixida bu g'oya o'z aksini Aflotun, Arastu, Konfutsiy, Ibn Sino, Forobiy, al-G'azoliy kabi mutafakkirlar ta'limotida topgan. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy "Fozil shahar" asarida jamiyatning mukammal shakli faqatgina "axloqiy yetuk va aqliy kamolotga yetgan oilalarning birlashuvi orqali yuzaga keladi"³, deb qayd etgan.

Oilaning ijtimoiy-institutsional mohiyati, ayniqsa, uning doimiy va barqaror strukturaviy asoslari orqali namoyon bo'ladi. R.T.Zohirov bu xususda quyidagicha yozadi: "Oila institutini mustahkamlashda diaxron aloqalarning, ko'pavlodlilik va qarindosh-urug'chilik an'analarining namoyon bo'lishi, tabiiy va ma'naviy ehtiyoj sifatida oilaga birikishning uzluksizligini ta'minlaydi"⁴.

Oilaning ijtimoiy mohiyatini tahlil qiluvchi ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila o'z funksional shakllarini jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va axloqiy o'zgarishlarga moslashtiradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy falsafa uchun oila - bu o'zgaruvchan sotsiokultural olamda nisbiy barqarorlikni saqlovchi "aksiyalar instituti"dir. Bu holat Markaziy Osiyo jadidchilari fikrida ham yaqqol aks etadi. Jumladan, Abdurauf Fitrat "Oila" asarida oila nafaqat jamiyatning axloqiy sarchashmasi, balki "millatning axloqiy saodati va barakot manbaidir"⁵, deya e'tirof etadi.

Oila o'zining funksional mexanizmi orqali shaxsning ontologik taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Ayniqsa, reproduktivlik va ijtimoiylashuv jarayonlari shaxsni jamiyat bilan dialektik aloqaga kiritadi. Oila "shaxsning birinchi ijtimoiy makoni" sifatida uning o'zligini shakllantiradi va o'zi bilan jamiyat o'rtasida aks ettiruvchi "ko'zguga" aylanadi⁶.

Zamonaviy jamiyatda oilaning institutsional turg'unligi ko'plab xavflarga duch kelmoqda: ajralishlar sonining ortishi, individualizmning kuchayishi, gender rollarning suyuqlashuvi, ijtimoiy tanazzulning oilaviy strukturaga ta'siri va hokazo. Bu holatni jamiyatni individualizatsiyalash va g'arbiy modernizmning ta'siri sifatida baholash mumkin. A. Giddens ta'kidlaganidek, "zamonaviy oila - bu suyuq zamon o'rtasida barqarorlik izlayotgan, biroq ichki ziddiyatlar bilan to'qnashayotgan ijtimoiy birlikdir"⁷. Bu sharoitda oilaning falsafiy talqini shunchaki sotsiologik yoki huquqiy yondashuvdan farqli o'laroq, inson ontologiyasi, jamiyat ontik strukturalari, qadriyatlar metamorfozasi va gumanizm asosida o'rganiladi. Aynan falsafa doirasida oila - bu "bo'lish" va "mavjudlik"ning sotsial-madaniy vositachisi, jamiyatni qayta tiklovchi hayotiy maydon sifatida namoyon bo'ladi.

Oilaning aksiologik xususiyati esa jamiyatdagi qadriyatlar tizimini saqlab qolish va uni uzluksiz ravishda translyatsiya qilish bilan belgilanadi. Bu borada Farobiy fikri o'ta dolzarb: "Fozil shaxslar tomonidan boshqariladigan fozil oilalar jamiyatga fozil hayotni olib keladi"⁸. Shunday ekan, oilaning ijtimoiy institutsional mohiyatini falsafiy nuqtai nazardan anglash bizga nafaqat tarixiy saboqlarni, balki istiqboliy yo'nalishlarni ham aniqlash imkonini beradi.

² Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - B.23.

³ Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri, Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993 - 124-129-6.

⁴ Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - B.17.

⁵ Fitrat A. Oila, Toshkent: Cho'lpon, 2019 - 27-6.

⁶ Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - B.18.

⁷ Soifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar, Toshkent: Yurist Media Markazi, 2007 - 18-6.

⁸ Giddens A. The Transformation of Intimacy, Cambridge: Polity Press, 1992.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yilda qabul qilingan "Yangi O'zbekiston - 2026" taraqqiyot strategiyasi mamlakatning barqaror rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, unda oila institutining mustahkamlanishi alohida o'rin tutadi. Oila, jamiyatning eng muhim ijtimoiy tuzilmasi sifatida, taraqqiyotning barqaror omili va insoniy munosabatlarning asosiy negizi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi oilaning barqarorligini oshirish, ijtimoiy qadriyatlarini saqlash va zamonaviy global tahdidlarga moslashish masalalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek jamiyatining ijtimoiy tuzilmasida oila doimo markaziy o'rinni egallab kelgan. O'zbekistonning yangi taraqqiyot modeli oilani faqatgina shaxsiy yoki xususiy muassasa emas, balki jamiyatning asosiy negizi sifatida ko'radi. Oila nafaqat demografik rivojlanishning garovi, balki milliy qadriyatlarning asosi sifatida ham e'tirof etiladi. Ma'naviy tarbiya jarayonida oila institutining roli kuchaytirilishi ta'kidlangan bo'lib, bu mamlakatning uzoq muddatli strategik barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - 16-17-6.
2. Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - B.23.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri, Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993 - 124-129-6.
4. Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - B.17.
5. Fitrat A. Oila, Toshkent: Cho'lpon, 2019 - 27-6.
6. Zohirov R.T. Oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-demografik, normativ va etnoma'naviy asoslari, DSc dissertatsiyasi, Qarshi: QarDU, 2023 - B.18.
7. Soifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar, Toshkent: Yurist Media Markazi, 2007 - 18-6.
8. Giddens A. The Transformation of Intimacy, Cambridge: Polity Press, 1992.